

XALQ AMALIY SAN'ATI VOSITASIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING IJODKORLIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

*Turakulov Anvar Ergashevich,
Termiz davlat universiteti "Pedagogika va ijtimoiy ish" kafedrasida katta
o'qituvchisi*

Annotatsiya: Tasviriy san'at darslarida o'quvchi talabalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda fanlararo aloqadorlik usullaridan foydalanish ham yaxshi samara beradi, yuqorida aytib o'tilganidek. O'rganilayotgan mavzu bo'yicha bir nechta fanlar, jumladan; musiqa, tarix, texnologiya, informatika, adabiyot (masalan; musiqa asarlari eshitib rasm ishlash, tasviriy san'at va musiqa o'rtasida aloqa o'rnatish.

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ЧЕРЕЗ НАРОДНОЕ ТВОРЧЕСТВО

*Туракулов Анвар Эргашевич,
старший преподаватель кафедры педагогики и социальной работы
Термезский государственный университет*

Аннотация: Использование методов межпредметной коммуникации в развитии творческих способностей учащихся на занятиях по изобразительному искусству дает хороший эффект, о чем говорилось выше. Несколько предметов по изучаемой теме, в том числе; музыка, история, техника, информатика, литература (например, прослушивание музыкальных произведений и создание картины, установление связи между изобразительным искусством и музыкой.

METHODOLOGY FOR DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING OF FUTURE TEACHERS THROUGH FOLK ARTS

*Turakulov Anvar Ergashevich,
Termiz State University is a senior lecturer at the Department of Pedagogy and
Social Work*

Abstract: The use of interdisciplinary communication methods in the development of creative abilities of students in fine arts classes has a good effect, as mentioned above. Several subjects on the studied topic, including; music, history, technology, informatics, literature (for example, listening to musical works and creating a picture, making a connection between visual arts and music.

Tasviriy san'at inson zotini mehnatga, aql-idrokka, tafakkur qilishga, ijod qilishga, go'zallikka intilishga o'rgatib, unda chiroyli, go'zal ma'naviy dunyosini yaratib keldi. Bugungi kunda tasviriy san'at odamlar va uning jamiyati uchun yuksak aql-idrok, chuqur bilim va tafakkur, go'zal turmush va e'tiqod yaratishini hamma yaxshi biladi. Shuningdek, kuzatishlar va ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, tasviriy san'at yoshlarga faqat ilm-tafakkur, go'zal estetik ideallar beribgina qolmay, odam zotining eng muhim jihatlari, ya'ni kuzatish, ko'rish, idrok qilish va tafakkur-tasavvurlarini rivojlantiradigan bosh va asosiy vosita ekanligi isbotlanmoqda.

Tasviriy san'at darslarida yangi pedagogik texnologiyadan foydalanish, asosan, o'qituvchining mahoratiga, ilmiy-ijodiy tafakkurining kuchli, serqirra, zamonaviy bo'lishiga va tashabbuskorligiga bog'liq bo'ladi. Agar o'qituvchi o'z kasbini, fanini

yaxshi bilib, uni seva olsa, u albatta, ijodkor bo'lib, har bir yangilikdan foydalanishga astoydil kirishadi. Bunday o'qituvchi yangi pedagogik texnologiyaning mazmun-mohiyatini o'rganib, uni o'zining pedagogik faoliyatiga olib kiradi.

Tasviriy san'at darslarida o'quvchi talabalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda fanlararo aloqadorlik usullaridan foydalanish ham yaxshi samara beradi, yuqorida aytib o'tilganidek. O'rganilayotgan mavzu bo'yicha bir nechta fanlar, jumladan; musiqa, tarix, texnologiya, informatika, adabiyot (masalan; musiqa asarlari eshitib rasm ishlash, tasviriy san'at va musiqa o'rtasida aloqa o'rnatish), adabiyot (she'riy satrlar o'qish, topishmoq, ertak, illyustratsiyalar chizish), tarix (san'at asarlari yarratilishini o'rganish, tarixiy voqealar, mavzuli voqeband mavzularni o'rganishda janglar tasviri va h.k....), texnologiya (o'yinchoqlar, kelgusida naqsh ishlash uchun idishlar, qutichalar yasash), informatika fanlari bilan bog'liq grafik o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Tasviriy san'atni o'qitish texnologiyasida asosiy o'rinni uni o'qitish didaktikasi va metodikasi egallaydi. Chunki metodika va didaktika maktab tasviriy san'atidan o'quvchilarga bilim-malaka berishning eng asosiy va oxirgi pedagogik usuli sanaladi.

Usul – biror narsa, hodisa, jarayonni o'rganish yoki amalga oshirish tartibi. Voqelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'l yo'riqlar, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usulidir. Inson faoliyatining barcha sohalarida tegishli usullardan foydalaniladi. Bu usullarning eng umumiy belgisini hisobga olgan holda ularni borliqni amaliy yoki nazariy o'zlashtirish operatsiyalarining yoki yo'llarining yig'indisi deyish mumkin. Biror ishni bajarish usulini egallagan inson shu ishni boshqalarga nisbatan tez va juda oson bajara oladi. Usulni ya'ni egallamagan inson esa bu ishni bajarish uchun ko'p vaqt sarflaydi.

Texnologiya (hunarmandchilik ilmi” yunoncha-techne, “san'at, mahorat, qo'l ayyorligi”) yig'indisi texnikasi, ko'nikmalar, usullar tizimidir. Har bir sohaning o'ziga xos texnologiyasi bo'ladi. Texnologiya tushunchasi 60-yillardagi Amerika va G'arbiy Yevropada ta'limning isloh qilinishi bilan bog'liq ravishda kirib keldi va B.Blui, J. Koroll, P.Y. Galperin, V.I. Davidov, N.A.Menchinskaya, Z.I.Kalmikova, L.I. Zankov texnologiyalari mashhurdir. O'qitishni tashkil qilishning texnologik yondashuvlari V.P. Bospalko, N.F. Talizina, L.M. Fridman, Y.N.Kulyutkina, G.S.Suxobskoy, T.V.Kudryavsev, A.M. Matyushkin, M.I.Maxmutov kabi aksariyat psixolog va didaktikachilarga taalluqlidir. “Texnologiya – ishlov berish, holatni o'zgartirish san'ati, mahorati, malakasi va metodlar yig'indisi” (V.M. Shepel). Pedagogik texnologiya – tinglovchi va o'qituvchining ularga zarur sharoit yaratish orqali o'quv jarayonini loyihalashtirish, tashkil etish hamda o'tkazish bo'yicha ular pedagogik faoliyatining har tomonlama o'ylangan modelidir. Pedagogik texnologiya – bu ta'lim shakllarini jadallashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida va ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tatbiq etish va belgilashning izchil metodidir.

Xo'sh, tasviriy san'atni o'qitishdagi pedagogik texnologiyani umumiy holda qanday tushunamiz?

Tasviriy san'atning pedagogik texnologiyasi-bu tasviriy san'at o'qituvchisining o'quvchilarga ma'lum davrda va sharoitda san'at bilimi va malakasini berish vositalari asosida oldindan belgilangan maqsadga erishish hamda bu vazifani bajarishni kafolatlay oladigan pedagogik jarayon. Texnologiyaga ishlab chiqarish jarayonlarini o'rganish, ulami bajarish, boshqarish, o'zgartirish, yangilash bo'yicha loyihalar, konstruksiyalar, texnik qoida, talablar, grafik tasvirlar, dizaynerlik rasmlar va boshqa standart dastur, metod, uslub, qoidalar kiradi.

“Pedagogik texnologiya bu o'qituvchining o'qitish vositalari yordamida o'quvchi

(talaba) larga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va aks ta'sir mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarining jadal shakllanishini kafolatlaydigan jarayondir". Zamonaviy pedagogik texnologiyalar mohiyati o'quvchiga bilim berish, ularni to'liq o'zlashtirishdan iborat. Ta'lim muassasalarida pedagogik texnologiyalar asosida dars o'tishda asosiy talab o'quvchining hayotiy tajribasi, avval o'zlashtirgan bilimi va qiziqishlari asosida yangi bilim berishni ko'zda tutadi. Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish samaradorligi o'zining ko'p qirraliligi bilan namoyon bo'lmoqda. Uzluksiz ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik, axborot texnologiyalaridan foydalanish o'quv materiallarini o'quvchi tomonidan qabul qilish va o'zlashtirish samarasini oshiradi. Shu bois shaxsiy kompyuterlar ta'lim vositasiga aylanmoqda.

Dars jarayonida qo'llaniladigan interfaol usullarini tanlashda avvalambor fanning xususiyatini hisobga olish kerak. Tasviriy san'at darslarini samarali va qiziqarli olib borish uchun o'qituvchi avvalambor kreativ bo'lishi, interfaol usullar va texnologiyalardan o'z o'rnida foydalanib bilishi kerak. Pedagogik texnologiyani yaratish tamoyillarining birinchisi muayyan dars, mavzu, qism, o'quv predmetidan

kutilgan asosiy maqsadni shakllantirib olishi; ikkinchisi; umumiy maqsaddan kelib chiqib, darsni yoki o'quv predmetini modullarga ajratib, har bir moduldan kutilgan maqsadni va modullar ichida hal qilinishi lozim bo'lgan masalalar tizimini aniqlab olishi shart. Yuqoridagi fikr asosida adabiyot va tasviriy san'atning o'zaro aloqasi ya'ni ertak va badiiy adabiyotlarga ishlangan illyustratsiyalarning o'quvchi talabalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi ahamiyati haqida to'xtalib o'tsak. Nafaqat bolalar hatto talabalarda ham kitobga qiziqish erta maktabgacha ta'lim davridayoq paydo bo'ladi. Buni biz ularning avvaliga shunchaki sahifalarni varoqlashi, kattalar o'qishini tinglashi va illyustratsiyalarni tomosha qilishida ko'rishimiz mumkin. Ularda obrazga qiziqish paydo bo'lishi bilan matnga qiziqish paydo bo'la boshlaydi. Ayniqsa maktabgacha tarbiya yoshidagi bolada idrok o'ta faol bo'ladi. Ular o'zlarini qahramon o'rniga qo'yadi, his-tuyg'ulari faollashadi, dushmanlari bilan kurashadi.

Shu bilan birga, idrok etish, tasavvur qilish, vakillik va tahliliy faoliyat qobiliyatining tizimli rivojlanishi kompozitsiya bilan ishlash ketma-ketligini ta'minlaydi. Illyustratsiya-kuchli ta'sir vositasidir. U badiiy asarni ham boyitishi ham qashshoqlashtirishi mumkin. Bu grafik rassomlarning mahoratiga balki, ertak yoki badiiy adabiyotda bayon qilingan tafsilotlarga munosabati, voqealarning qay darajada o'zlashtirgani va uning dunyoqarashiga bog'liq. Demak, chiroyli bezakning yechimini grafik rassomning mahoratigina emas, balki uning asarni o'qib qay darajada tushunganligi ham hal qiladi. Illyustratsiyalarda har doim rassomning syujetga, qahramonlarga, ularning taqdiri va xarakterlariga individual munosabati aks etadi.

O'quvchi va talabalarning o'zlashtirish darajasiga o'qitish usullarining ta'sir darajasi:

1. Ma'ruza - eshitganimizning 5%.
2. O'qish – o'qiganimizning 10%.
3. Videousul, namoyish – ko'rganimizning 20%.
4. Tajribani namoyish qilish - ko'rgan va eshitganimizning 30%.
5. Bahs-munozara - muhokama qilganimizning 40%.
6. Mashqlar – o'qigan, yozgan, gapirganimizning 50%.
7. Ishbop o'yin, kichik guruhlarda ishlash, loyihalash - mustaqil o'qiganimizning, tahlil va muhokama qilganimizning, himoya va namoyish qilganimizning 75%.
8. Yo'naltiruvchi matn, muammoli vaziyat, boshqalarni o'qitish - mustaqil o'rganganimizning, tahlil va muhokama qilganimizning, boshqalarni o'qitgan

narsalarimizning 90%.

Yuqoridagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, dars jarayonida an'anaviy metodlar qo'llanilganda, o'quvchilarning axborotni eslab qolish ko'rsatkichining eng yuqori darajasi 30% ni tashkil etar ekan. Noan'anaviy metodlar qo'llanilganda esa, o'quvchilarning axborotlarni o'zlashtirish darajasi yanada ortib boradi. Quyida ta'lim jarayonida foydalanmoqchi bo'lgan metodlarni tanlash vaqtida hisobga olish lozim bo'lgan ayrim jihatlarni ko'rib chiqamiz.

Har qanday ta'limning maqsadi - bilimni hamda uni amalda qo'llay bilish ko'nikmalari va malakalarini shakllantirish, shunga zarur shaxs sifatleri va ko'rsatmalarni ishlab chiqishdir.

Pedagogik texnologiyalar masalalari, muammolarini o'rganayotgan ilmiy tadqiqotchilar, amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya-bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq, hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan texnik vositalar, kompyuter, masofali o'qish yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi. Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi-bu trener va o'quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalariga bog'liq deb hisoblaymiz, ya'ni o'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi trener va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida o'quvchilar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o'zlari xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsalar, trener esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha, ana shu, o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor, ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u o'quvchining ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Haqiqatda ham pedagogik amaliyotlar va pedagoglar bilan o'tkazilgan suhbat va savol-javoblarga tayangan holda va yuqorida bayon etilgan ta'riflarga ko'ra, pedagogik texnologiya-ma'lum belgilangan sharoitda o'quvchilarga bilim va malaka berishning qonun-qoidalari va vositalari asosida oldindan belgilangan maqsadga erishishning kafolatlay oladigan pedagogik jarayon ekanligini anglab olamiz. Shuning uchun aytish mumkinki, bizningcha, pedagogik texnologiya- o'qituvchining mahoratidan istisno bo'lib, u darsning tashkil etish didaktikasidan ham, uni o'qitish metodlaridan ham, hatto usullaridan ham farqlanadi.

Oliy ta'lim muassasalaridagi tasviriy san'at o'quv jarayoniga, xususan Dastgohli akademik rangtasvir asoslari va kompozitsiya darslariga innovatsiyalarni tatbiq etishda interfaol metodlarning ahamiyati ham o'ziga xos hisoblanadi.

Interfaol – so'zi inglizcha so'z bo'lib, “inter” - o'zaro va “act” - harakat qilmoq ma'nolarini bildirib, ularning umumiy mazmuni interfaol - ya'ni o'zaro harakat qilmoq ma'nosini anglatadi. Bunday o'zaro harakat turlariga “tinglovchi - o'qituvchi” va “tinglovchi-tinglovchining maqsadli harakatlarini kiritish mumkin. Interfaol o'qitishda o'qituvchi o'quv faoliyatninig faol tashkilotchisi bo'lib, o'quvchi bu faoliyatning sub'ekti sifatida namoyon bo'ladi. Interfaol o'qitish bu bilish faoliyatini rivojlantirishning maxsus tashkiliy shakli bo'lib, interfaol o'qitish jarayonida ta'lim oluvchi o'qitishning ob'ektidan o'zaro hamkorlikning sub'ektiga aylanishi, o'quv jarayonida faol ishtirok etishi bilan tavsiflanadi. chiqiladi.

Interfaol o'qitish tinglovchilardan axborotlarni o'zlashtirish jarayonida faollik, ijodkorlik, mustaqillikni shakllantiribgina qolmay, ta'lim maqsadlarining to'laqonli amalga oshishiga yordam beradi.

Bunda ta'limning quyidagi konsepsiyalari fundamental asos sifatida xizmat qiladi:

- o'qituvchining jadal faoliyati- o'quv faoliyatining asosiy ko'rinishi sifatida namoyon bo'lib, u mazkur harakatning sub'ekti va tashkilotchisi sifatida faoliyat ko'rsatadi;

- o'quv faoliyatining asosiy negizi va natijasi, mazkur faoliyatning sub'ekti – tinglovchi hisoblanadi;

- muvaffaqiyatli o'quv faoliyatining asosiy ko'rsatkichi, uning natijasi o'qituvchining fikrlash usullarini o'rganish va amaliy masalalarni ijodiy hal etish, erkin, mustaqil harakat qila olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat;

- o'quv faoliyatning asosiy ko'rsatkichi o'quv topshiriqlari hisoblanadi. Bunda ta'lim jarayonining asosiy sub'ekti bo'lgan tinglovchida fikrlash, bilish harakati usullarini rivojlantiruvchi o'qitish taktikasi muhim o'rin tutadi;

- o'quv faoliyatini amalga oshirish jarayoni tinglovchidan o'zining shaxsiy bilish mahorati va ko'nikmalarini o'zlashtirib olishi uchun zamin hozirlashdan iborat.

Bugungi globallashtirish jarayonida yosh avlodni har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalash, kunning dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bunday muammoni hal qilishda barcha fanlarni ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatini o'quvchilarga uqtirib o'qitish o'z samarasini berishi shubxasiz. Shunday fanlar qatorida tasviriy san'at fanining ham ahamiyati kattadir.

Tasviriy ijodiy ishlar o'qituvchining shaxsiy tasviriy mahoratini oshirib borishga xizmat qiladi. U o'qituvchini o'zi ma'qul ko'rgan tasviriy yoki amaliy san'atning tur va janrlaridan birontasi bo'yicha ijodiy ishlar olib borishini taqozo etadi. Ijodiy ishni bu shakli bo'yicha o'qituvchi olib borgan ishlarining natijalari yuzasidan ko'rgazma va tanlovlarda qatnashadi.

Ma'lumki, hozirda ta'lim jarayonlarini texnika vositalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. So'nggi yillarda texnika vositalarining yangidan-yangi turlari paydo bo'lmoqdaki, ular ta'lim sifatini zamon talablari darajasiga olib chiqishga xizmat qiladi.

Tasviriy san'at ta'limining hozirgi ahvoli shuni ko'rsatmoqdaki, o'qituvchi ta'limni tashkil etuvchi davlat va jamoatchilik tashkilotlaridan shart - sharoitlar kutmasdan o'z faoliyatini o'zi qayta qurishi zarur. Hozir va bundan buyon ham ta'lim jarayonlarida texnika vositalari muhim o'rinni egallaydi hamda dars samaradorligini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shunday ekan o'qituvchi bu borada bir qator ishlarni amalga oshirishi kerak bo'ladi. O'quvchilarga bilim-malaka berishni eng osonlashtiradigan vosita-bu ko'rgazmalar vositasida o'qitishdir. Tasviriy san'atni o'qitishda ko'rgazmalilik prinsipi boshqa barcha o'quv fanlaridan ko'ra ahamiyatli va samarali bo'lib xizmat qiladi. Chunki tasviriy san'at o'quv predmetining biron-bir dars mavzusi yo'qki, uni ko'rgazmasiz o'qitish mumkin bo'lsa. Ko'rgazmali o'qitish ta'lim berishning ilmiy asosi hisoblanadi. Chunki mumkin bo'lgan narsalarning hammasini sezgilar orqali idrok qildirmoq kerak. Ko'rib bo'ladigan narsalarni ko'z vositasi bilan, ushlab ko'rib sezilishi mumkin bo'lgan narsalarni ushlab ko'rish vositasi bilan idrok qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S.Bulatov. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. Toshkent-1991 yil.
2. M. Pritsa «Toshkent ganchkorligi» Badiiy adabiyotlar nashriyoti. 1960 yil.
3. S.Bulatov. O'zbekiston san'ati tarixi. Toshkent 1991 yil.
4. T.Abdullayev XIX-XX asrlarda O'zbekiston kandakorlik san'ati. Toshkent 1994.
5. R.Xasanov. Amaliy bezak san'ati metodikasi. Toshkent 2003 yil.
6. D.Mamatov «Kompyuter grafikasi» Durdon nashriyoti, B. 2020.-172.
7. Mamatov D. Projects of making clay and plastic toys in pre-school education //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 9. – C. 281-285.